

BOLANING ANATOMIK-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI (AFX.)


Xojiyeva Xayitxon Tolipovna

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Pediatriya fani o'qituvchisi*



Suyak va mushak sistemasi Limfa tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari Asab sistemasi Ichki sekretsiya bezlari

Terining eng muhim funksiyalaridan biri organizmni zararli mexanikva ximiyaviya'sirlardan saqlab, himoya qilib turadi. Bundan tasqqari moddalar almashinuvi: nafas olish, tana xaroratini saqlashjarayonlarida qatnashadi.Teri beshta sezgi organlarining biri bo'lib, organizm orqali tashqi muhitga moslashib boradi. Teri, MNS va vegetativ nerv sistemasi o'rtasida doimiy bog'lanish bo'ladi. Teri ikki qavatdan: epidermis va derma qavatdan tuzilgan. Ustki shox qavati yupqa, 2-3 qator joylahsgan epitelial xujayradan iborat.


Bolalar terisi kapilyar qon tomirga boy, ter bezlari zaif rivojlangan, ular 3-4 oylikdan faoliyatini boshlaydi. Yog' bezlari yahshi rivojlangan.Bola tug'ilganda kazeoz modda bilan qoplangan bo'ladi, uni tozalagandan keyin qizg'ish tusga kiradi. Chaqaloq xayotining 2-3 kunlarida terisi va shilliq qavatlari sarg'ish rangga kiradi, bu jarayonni fiziologik sarig'lik deyiladi (eritrositlrs gemolizgauchrab qondaerkin

bilirubin oshadi) 5-6 kundan so'ng o'tib ketadi. Chaqaloqlar terisi mayin [tukchalar bilan qoplangan](#), tirnoqlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Terining asosiy vazifalaridan biri himoya: mexanik, himiyaviy, issiq-sovuq ta'sirlardan himoya qiladi. Bola qanchalik yosh bo'lsa shunchalik bu vazifalar bo'sh bo'ladi. Yngi tug'ilgan chaqaloqlarning yana bir xususiyatlaridan biri ularning terisida ultrabinafsha nurlari ta'siri ostida Vitamin "D" xosil bo'ladi.

Go'dakning terisi uni mikroblardan himoya qilishga qodir [lizosim](#) va shunga o'xshash moddalarni ishlab chiqarishga qodir bo'ladi. Lizosim bola tanasi toza mahalda eng ko'p ishlab chiqiladi shuning uchun chaqaloqni imkoni bo'lishicha har kun cho'miltirish tavsiya etiladi. Bola emish, yutish, ushlab, emgaklash, suzish, oyoq tirash va yurish kabi harakat reflekslari bilan tug'iladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning tana harorati 35-37 gradus bo'ladi, vaqt o'tishi bilan muallaq 36 gradus atrofida bo'ladi. Tez orada rivojlangan ter bezlari esa bolani isib ketishdan himoya qiladi. Xona haroratini esa doim bir xil darajada, masalan 20 gradusda ushlab tavsiya qilinadi.

Go'daklar boshining tepasida kichkina va katta liqildoq bo'ladi, bu miya suyagining yaxshi qo'shilmagan joyi bo'lib bola jarohatsiz tug'ilishiga yoki yiqilganda qattiq jarohat olmasligida muhim yordam vazifasini bajaradi. Vaqt o'tishi bilan bola bir yoshga to'lgunicha liqildoqning joyi bitib ketadi. Shu muhlat ichida bitib ketmagan liqildoq, bolada [raxit](#) kasalligi bor ekanligini belgisi bo'lishi mumkin.

Suyak va mushak sistemasi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning suyagi asosan tog'aydan iborat. Bolaning suyagi yumshoq – chunki suyagida organik moddalar ko'p, mineral moddaga qaraganda. Suyaklarning yumshoqligi, agar bola noto'g'ri parvarish qilinsa turli suyak [deformatsiyalariga olib keladi](#), ayniqsa o'tiradigan va yuradigan mahalida. Suyaklarning eng kuchli o'sishi 3 yoshgacha va balog'at yoshiga yetish davrida. Bola 12 – 13 yoshida kattalarnikidan farq qilmay qoladi.



Chaqaloqlarda kalla suyagi yumshoq, egiluvchan, pechona va tepa suyaklarda choklari bitmagan bo'ladi. U rombsimon shakl bo'lib 2 -2,5sm ochiq bo'ladi- bu katta liqildoq deyiladi va u14 [oyligacha bitishi kerak](#), agar bitmasa raxit kasalligidan dalolat bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning umurtqasi to'g'ri bo'ladi, egilmalari bola xayotining turli oylarida xosil bo'ladi: 2 oyligida bo'yin lordozi, 6 oyligida ko'krak kifozi, 1 yoshda bel lordozi payda bo'ladi. Agar bola noto'g'ri parvarish qilinsa xar hil umurtqa patologiyalari kelib chiqadi: skoliyoz, kifoz. Ko'krak qafasi silindrsimon yoki konussimon bo'ladi.

Umurtqasi qovurg'asiga gorizontal bo'ladi. Tishlarning to'g'ri o'sishi ham suyak sistemasining qanchalik to'g'ri rivojlanayotgan-ligini ifodalaydi. 6 -7 oylikda 2ta pastki kesuvchi tishlar, 2 oydan [keyinyuqori kesuvchi tishlar](#), 2 oydan keyin yuqorikesuvchi tishlar chiqadi. Bola bir yoshga to'lganda umumiy 8ta tishi bo'lishi kerak. 3 yoshga-cha 20 ta sut tishi chiqib bo'lishi kerak. 6-7- yoshda doimiy tishlar bilan sut tishlari almasinadi. Eng ozirgi tishlar 18 – 20 yoshlarda chiqadi. Mushaklar chaqaloqlarda zaif rivojlangan, gavda og'irligining 21 – 23% tashkil etadi. Mushak tolalari nafis tuzilgan, yosh o'tgan sayin tolalar yo'g'onlashadi. Mushak sistemasining rivojlanishi o'g'il bolalarda kuchliroq bo'ladi, voyaga yetish davrida 20 – 28 yoshlarda mushak sistemasining rivojlanishi tugallanadi.

Go'dak organizmi hali tuzuk rivojlanmagan, a'zolari takomillashmagan, turli xil kasalliklarga tez chalinadigan, shu sababli sinchiklab parvarish qilishga muhtoj bo'ladi. Bu davrda bolaning bo'yi va vazni tez o'sadi, unda energiya sarfi ortadi, shu bois uning ko'pgina, xususan hazm, nafas, yurak-tomir va boshqa sistemalari faoliyati jadal takomillasha boradi. Bolani yaxshi parvarish qilinsa va to'g'ri, iloji boricha ona suti bilan boqilsa, u sog'lom bo'lib, vazni oshaveradi. Go'dak uchun eng zarur ovqat — ona suti, unda bolaning sog'lom va to'g'ri o'sishi uchun zarur moddalar — [oqsil](#), [yog'](#), [uglevod](#), [tuz](#), [suv](#), [vitaminlar](#), shuningdek, himoya antitelolari bor, ular bola hayotining dastlabki oylarida ba'zi bir [yuqumli kasalliklardan](#) saqlab qoladi. [Ko'krak suti](#) boshqa ovqatlarga qaraganda yaxshi hazm bo'ladi va to'la-to'kis singadi, tarkibida mikroblar bo'lmaydi. Bolaning normal o'sishi uni bekam-u ko'st ovqatlantirishga bog'liq. Bola bir oylik bo'lishiga yaqin bo'yi 3-3,5 sm, bir yoshida esa 25-27 sm uzayadi. Dastlabki 3 oyda vazn hafta sayin 200-250 g dan, 6-oylarda 150-200 g dan oshib boradi. 6 oylik Go'dak vazni tug'ilgandagi vazniga nisbatan ikki hissa, 1 yoshida uch hissa oshadi, bu davrda vazni 10–11 kg ga yetib qoladi. Bolaning harakat faoliyati va psixikasi juda tez rivojlanadi: avvaliga bola o'tira boshlaydi, keyin emaklab ketadi va nihoyat, turadigan bo'ladi, ota-onasini taniydi. Bir yoshga yaqin avval kattalar yordamida, keyin o'zi yuradi; tili chiqadi va murg'ak qiyofasiga kiradi; u nimjonligiga qaramay o'zining hissiyotlari, kechinmalari bo'ladi. Bu davrda bola organizmining hamma a'zo va sistemalari yana ham rivojlanadi, biroq uncha takomillashmagan va o'ziga xos bo'ladi. Terisi nozik, salga shikastlanadigan va o'ziga

xos parvarishni talab etadi. Dastlabki 3-4 oyda ter bezlari funksiyasi sust bo‘lib, bu issiqlik idora etilishini yomonlashtiradi, harorat o‘zgarganida bola salga issiqlab ketishi yoki sovqotishi mumkin. Go‘dak yarim yoshligida ayniqsa yuzda teri osti yog‘ qavati yaxshi rivojlanadi. Go‘dak hayotining dastlabki oylarida suyaklari qisman tog‘ay to‘qimasidan iborat bo‘lib, bora-bora suyak to‘qimasiga aylanadi. Tog‘aylar sohasida suyaklanish nuqtalari paydo bo‘ladi. Katta liqildoq kechi bilan 1,5 yoshga borib yopiladi; kalla suyaklari oralig‘idagi choklar 3-4 oyga borib sekin-asta zichlashadi. Bolaning umurtqa pog‘onasi juda mayin bo‘lib, salga qiyshayadi. Bola noto‘g‘ri parvarish qilinsa, u sof havoda kam bo‘lsa, skeletining shakllanishi buziladi — bu raxit va boshqa kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. taxminan 6 oygacha bolada tish bo‘lmaydi; 6-8 oylikda tish chiqa boshlaydi, bola bir yasharligida 8 ta tishi bo‘ladi. Tish chiqishi maromida, hech qanday kasallik alomatlarisiz kechadi, ba‘zan tishi chiqayotgan bola injiq bo‘lib qoladi; darmonsizlanish, uyqusizlik, isitmalash, ich ketishi va boshqa kuzatilishi mumkin. Bu vaqtda darhol vrachga murojaat etish kerak .

Asosiy adabiyotlar

1. M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizaeva. “Bolalarda xamshiralik parvarishi”. Toshkent, “Fan va texnologiya” 2012 yil.
2. X.N Fayziev. «Sestrinskiy uxod za detni» Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2008 yil
3. K.S Inomov. «Pediatriyada xamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. “Bolalikdahamshiralik ishi” fanidan tibbiyot kollejlari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent 2016 y (YuNISEF).
2. “Xavfsiz immunizatsiya” dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. 2014 y (YuNISEF).
3. “Эффективный перинатальный уход. Akusherstvo (Integrirovannoe vedenie beremennosti i rodov) 2014 y (YuNISEF).
4. “5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘sishi va rivojlanishi” O‘quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
5. “Onalarga bolalarni oziqlantirish va parvarish bo‘yicha tavsiyalar” O‘quv kursi. Toshkent, 2013 y. (YuNISEF).
6. “Bola-sog‘lom bo‘lsin desangiz”. O‘quv kursi.Toshkent, 2013 y.
7. “Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish” Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2010 y.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz,
2. www.lex.uz,
3. www.google.uz,
4. www.med.uz,
5. www.referat.uz,
6. www.tma.uz,
7. www.gigiyena.uz.